

CHO'LPON-SHE'RIYAT OSMONIDAGI YORQIN YULDUZ

Aliyeva Aziza Utkirovna

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi 1-o'quv kursi 107-guruh
kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug' shoir va dramaturg, jadidchilardan biri bo'lgan Cho'lponning hayoti, uning umr yo'li, she'rlari, romanlari, tarjima asarlari hamda adabiy merosi, shuningdek she'riyatiga tahlil va mustaqilligimizdan so'ng shoir shaxsiga nisbatan bo'layotgan e'tirof bayon etilgan.

Kalitsa'zlar: Cho'lpon, Kecha va Kunduz, Turkiston, Moskva, millat, xalq, Yorqinoy, Zebi va boshqalar.

Cho'lpon — XX asr yirik namoyondasi, shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Cho'lpon 1897 yili Andijon (Qatortarak) da tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. Keyin rus-tuzem maktabida o'qigan. 1914 yili Toshkentga keladi va o'z faoliyatini "Sadoi Turkiston" gazetasi bilan bog'laydi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog'chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. 1916-1917 yillarda Orenburgda yashaydi va u yerda boshqird hukumati mahkamasida kotib bo'lib ishlaydi. So'ng Toshkentga qaytadi. 1920 yilgacha TurkRosTAda xizmat qiladi. 1920 yili Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. O'sha yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi va o'zbek tilida chiqadigan "Buxoro axboroti" gazetasiga rahbarlik qiladi. Bir yilcha ishlab Toshkentga qaytadi. Adabiyot va madaniyat ishlari bilan shug'ullanadi. 1924-1926 yillarda Cho'lpon Moskvada yashaydi. U yerda ochilgan O'zbek dramstudiyasiga rahbarlik qiladi. Shundan keyin jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho'lponni ham chetlab o'tmadi. Ta'qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullandi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketadi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo'lib ishlaydi.

Cho'lponning ijodi 1913-1914 yillardan boshlangan bo'lib, u avval "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" va nihoyat "Cho'lpon" (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o'z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo'shadi. Cho'lponning dastlabki asarlari "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan "Sho'ro" jurnalida nashr

etiladi. Cho'lponning "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Buxoro axbori" kabi gazetalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida maktab bo'lib xizmat etadi.

Cho'lpon ocherknavis va publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. Bu borada ayniqsa, uning "Adabiyot nadir", "Muhtaram yozuvchilarimizga" kabi maqolalari adabiyotning maqsad va vazifalarini anglashda muhim rol uynaydi. U 1914-1917 yillarda yaratgan "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammaddiyor" singari hikoyalari, "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar" singari maqolalarida madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. U Oktabr to'ntarishidan keyingi 1920-1924 yillarda hayotda sodir bo'layotgan xush va noxush o'zgarishlarni qalamga oldi. "Yo'lda bir kunduz", "Yo'lda bir kecha", "Sharq poyezdi keldi", "Sharq uyg'ongan", "Quturgan mustamlakachilar", "Yo'l esdaligi" singari o'nlab ocherklari va publitsistik maqolalarida chorizm mustamlakachilari va mahalliy hokim sinf yetkazgan jabru jafolar yetmaganidek, fuqarolar urushi davrida ruy bergan fojialarni qoraladi.

Cho'lpon- she'riyati

Cho'lpon 1922-1926 yillarda o'zining "Uyg'onish", (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari"(1926), "Soz" (1935) kabi to'rtta she'riy to'plamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib, "Jo'r" to'plamini tayyorladi. Ammo "Soz" i chop etiladi, "Jo'r" to'plami qatag'onlik tuzog'iga ilinib qolib ketadi. Shoirning to'plamlari orasida "Buloqlar" (1923) alohida ajralib turadi. To'plam besh bo'limdan iborat bo'lib, ular "Sharq uchun", "Sezgilar", "Sevgi", "Qora yo'llar" va "Qor qo'ynida" deb nomladi. Jumladan, "Buzilgan o'lkaga" she'rida o'lkamizning tabiati-yu xalqining qanchalar mehribonligini hamda unda kechayotgan voqealar, xalqning qiyinchiligi va tashvishini quyidagicha bayon etdi:

Buzilgan o'lkaga

Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,
Nega sening boshing uzra quyuyq bulut ko'lanka?
Ujmozlarning kavsaridek pokiza.
Sadaflarning donasidek top-toza.
Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig'lar kabi ingraylar?
Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglaylar?
Tabiatning o'tini yo'q o'tida,
Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar
Har qorong'i, qo'rqinch tunning betida

Shifo istab kelmasin der, qo'noqlar.

Bu nega?

Ayt menga.

Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,

Ustlarida na poda bor, na yilqi,

Podachilar qaysi dorga osilg'on?

Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga

Oh, yig'i,

Bu nega?

Tumorchalar, hamoyillar taqingan.

Dalalarda lola bargi yopingan,

Tog'-toshlarda o'yin qilgan,

Chopingan

Go'zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?

Javob yo'qmi ko'klardan-da, yerdan-da,

Xarob bo'lgan eldan-da...

Cho'lpon-buyuk dramaturg.

Cho'lpon dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning "Xalil farang", "Cho'ring isoni" kabi kichik pyesalari, "O'rtoq Qarshiboyev", "Mushtumzo'r" kabi dramalari hamda ko'p vaqt sahnadan tushmagan "Yorqinoy" pyesalari mashhur bo'lgan. Shuningdek, rus yozuvchisi V.Yan bilan hamkorlikda "Hujum" dramasini yaratgan. Cho'lponning "Yorqinoy" dramasida quyidagicha bag'ishlov so'z mavjud: "Totli va boy tili bilan ertak aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo'lgan KAMPIR ONAga hurmat bilan bag'ishlayman".

Bu so'zlardan ma'lum bo'lishicha, "Yorqinoy" pyesasi zaminida Cho'lponning "kampir onasi"dan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa "Yorqinoy" pyesasida Andijondagi Po'latxon qo'zg'oloni bilan bo'g'liq voqealar aks ettirilgan, degan fikr ham mavjud. Bizningcha ham, Cho'lpon yoshligida "kampir onasi"dan Po'latxon qo'zg'oloni haqidagi ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak-voqeadan foydalangan bo'lishi mumkin.

O'lmas Botir ismli sarkardaning qarorgohida bog'bonlik qilgan Po'lat bilan uning Yorqinoy o'rtasida muhabbat shabadasi esa boshlaydi. Po'lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa xonzodalarga mos qayliq bo'lgani uchun bog'bon yigit o'z sevgisining baxtli natija bilan tugashi mumkinligiga ishonmay O'lmas Botir xonadonidan ketmoqchi bo'ladi. Shu payt Po'latni Yorqinoy bilan tanholikda uchratib qolgan Botir uni benomuslikda, ko'rnamaklikda ayblaydi. Yorqinoyni ham or-nomusni unutib, faqir bir

xizmatkor bilan uchrashgani uchun o'ldirishga tayyor ekanligini aytadi. Yorqinoy esa haq yo'lida o'limga ham tayyor. O'lmas Botir va unga o'xshash kimsalar uchun haq ikki xil bo'lgan: o'zlari uchun va o'zгалar uchun. O'zlari uchun mavjud bo'lgan haq uni o'zining yolg'iz qizini jazolashga imkon bermaydi, lekin o'zгалar uchun haq tushunchasi uni shu lahzaning o'zida Po'latni qatl etish uchun yo'l ochadi. Ana shunday e'tiqod bilan yashagan O'lmas Botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo'r sarkarda ekanligi ma'lum bo'ladi. U bilan ilk bor to'qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo'lgan Po'lat o'zining va otasining kim ekanligini undan so'rab bilmoqchi, o'z ajdodlarining taqdiri to'g'risida xabar topmoqchi bo'ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O'lmas Botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo'lib qoladi. Agar biz Cho'lpon ijodi va ijtimoiy faoliyatining negiz-negiziga nazar tashlasak, uning uchun faqat bir sajdagoh bor ekanligini ko'ramiz. Bu xalqdir. Xalq qayerda bo'lsa, haq ham o'sha yerda bo'ladi. Shuning uchun ham Cho'lpon otasi orzu qilgan mudarrislik kasbini tanlamay, o'zini xalq baxt-saodati yo'lida mashaqqat va azoblar bilan to'la kurashga bag'ishlagan edi. Yorqinoyning ham "hunari go'rkovnikidan ham yomon" otasidan voz kechib, Po'lat sarkardasi bo'lgan xalq bag'riga otilishida Cho'lpon tushungan hayot ma'nosi yotadi. Yorqinoy Po'latga ruhan yaqin bo'lgani, uni nafaqat or-nomusli, irodali yigit, balki haqiqat yo'lida kurashga tayyor bo'lgani uchun ham sevadi. Yorqinoy otasining qonli ishlaridan xabardor bo'lgach, undan voz kechib, Po'lat olib borgan kurashga qo'shiladiki, biz uning vujudida To'marisning qoni jo'sh urib turganiga ishonch hosil qilamiz. Po'lat o'z do'stlari – qashshoq xalq vakillari bilan birga hamda yoshlikdan jangovarlik an'analari asosida tarbiya ko'rgan Yorqinoy yordamida xon qo'shinlarini yengib, saltanat tepasiga keladi. Ammo Yorqinoy uchun toju taxt emas, uni sevuvchi, unga butun hayotini bag'ishlovchi Po'lat kerak edi. U Po'latning saltanat ishlaridan ortgan daqiqalarinigina huzurida, yana horigan holda o'tkazayotganini ko'rib g'azablanadi, toju taxtdan ham nafratlanib ketadi. Shunda Po'lat Yorqinoyga bunday javob beradi: "Toju taxt... toju taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... uni o'ylash kerak... uning g'amini yeyish kerak..."

Bu alangali so'zlar asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi mantiqiy xulosadir. Ko'ramizki, Cho'lpon ushbu asarida xalq – qahramonlik dostonlari an'analaridan istifoda etgan holda zamonaviy muhim g'oya bilan sug'orilgan asarni yaratgan.

Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og'ir

kulfatu, mashaqqatlarga to'liq hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta'sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo'lgan go'zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi fimsoli fikrimizni dalillaydi. Muallif Zebi taqdirida, Razzoq so'fi va Qurbonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko'rsatib beradi.

Cho'lpon-mohir tarjimon

Ma'lumki, ma'rifatparvar adib ijodida tarjima san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Cho'lpon tarjimalari qatorida Pushkinning "Boris Godunov" va "Dubrovskiy" Shekspirning "Hamlet", Molyerning "Xasis", Gossining "Malikai Turandot", Tretyakovning "Hayqir, Xitoy", Faykoning "Portfellik kishi", Gogolning "Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich o'rtasidagi nizolar hikoyati" hamda boshqa asarlarni qayd etish joiz. Bundan tashqari, shoir Sharq va G'arb she'riyatining sara namunalari o'zbek tiliga o'g'irgan.

Cho'lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi qatag'on davrining qurboni bo'lgan. U 1937 yilning 14 iyulida qamoqqa olinib, 1938 yilning 4 oktyabrida otib tashlangan.

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,

Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,

Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

Cho'lponning asarlari uzoq vaqt davom etgan tanaffusdan keyin 1991 yili "Yana oldim sozimni" nomi bilan nashr etildi. 1991 yil 25 sentyabrda Cho'lponga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi. 1997 yili adib tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning ko'plab asarlari yangidan nashr etildi va u haqda ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon milliy ozodlik uchun kurash yo'lida ko'rsatgan matonati va buyuk xizmatlari, o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun 1999 yilda "Mustaqillik" ordeni bilan mukofotlandi. 1997-yil Cho'lponning 100-yilligi keng nishonlanib, Andijonda Cho'lpon uy-muzeyi tashkil etildi, viloyatdagi Tillar pedagogika instituti, shuningdek, litseylardan biri Cho'lpon nomi bilan ataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Jadidlar"to'plami-D.Quronov.T-2023
- 2."Cho'lponning badiiy olami".T-1993
- 3."Cho'lponni anglash" O.Sharafiddinov.T-1994
- 4."Istiqlolni uyg'otgan shoir" N.Karimov.T-2000

5."Yana oldim sozimni" asarlar.T-1991